



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024-yil
yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-avgustdagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-avgust)

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi – 65,5 %**



**Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi –
3 964,7
ming so'm**




**Xizmatlar
sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi – 68,4 %**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
(1-sentabr holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(yanvar-avgust)




Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va tashkilotlar

(1-sentabr holatiga ko'ra)



Soni, birlikda

2024

13 087

2023

12 920

2022

14 822

2021

13 129

2020

11 101

Soni, birlikda

2024

2 037

2023

1 556

2022

1 604

2021

1 927

2020

2 217

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-avgust)

2024


56,9 %

Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi

37,4 %


2020

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-avgust)



■ Hajmi, mlrd. so'mda  O'sish sur'ati

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024-yil yanvar-avgust)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023-yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-avgust)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Surxondaryo viloyati ¹⁾	11467,2	100,0	110,3
Termiz sh.	3170,2	27,6	107,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	493,1	4,3	111,1
Angor	478,4	4,2	111,5
Bandixon	260,4	2,3	111,9
Boysun	360,6	3,1	112,7
Muzrabot	518,9	4,5	111,2
Denov	1482,6	12,9	111,5
Jarqo'rg'on	652,7	5,7	112,7
Qumqo'rg'on	697,0	6,1	109,6
Qiziriq	422,9	3,7	110,5
Sariosiyo	679,0	5,9	110,1
Termiz	552,3	4,8	113,0
Uzun	471,2	4,1	109,7
Sherobod	617,6	5,4	112,1
Sho'rchi	610,3	5,3	112,2

¹ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-avgust)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-avgust)


Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Termiz sh	15 616,6	104,4 %
Termiz	6 482,1	110,0 %
Denov	3 508,3	108,7 %
Qiziriq	3 394,2	108,0 %
Muzrabot	3 363,1	108,8 %
Angor	3 308,7	108,8 %
Bandixon	3 119,1	108,8 %
Sariosiyo	2 966,3	107,6 %
Sherobod	2 916,0	109,6 %
Boysun	2 882,5	110,4 %
Jarqo'rg'on	2 724,2	109,8 %
Qumqo'rg'on	2 714,1	107,0 %
Sho'rchi	2 655,9	109,5 %
Oltinsoy	2 545,6	108,3 %
Uzun	2 495,5	107,1 %

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-avgust)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **65,5** foizni, shu jumladan, **17,9** foizini kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024-yil yanvar-avgust)




Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-avgust)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	11 467,2	100,0	110,3
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	614,1	5,3	115,9
Moliyaviy xizmatlar	2 443,9	21,3	105,9
Transport xizmatlari	1 676,3	14,6	110,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 457,0	12,7	111,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	396,3	3,5	111,3
Savdo xizmatlari	4 111,6	35,9	113,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	248,1	2,2	108,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	495,4	4,3	108,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	178,2	1,5	109,5
Ijara xizmatlari	218,0	1,9	104,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	282,8	2,5	109,2
Shaxsiy xizmatlar	366,0	3,2	110,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	154,1	1,3	90,7
Boshqa xizmatlar	282,4	2,5	110,6

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-avgust)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024-yil yanvar-avgust, mlrd. so'mda)

Termiz sh	1113,4
Denov	348,0
Qumqo'rg'on	198,3
Sariosiyo	151,4
Jarqo'rg'on	94,0
Sho'rchi	83,5
Sherobod	81,7
Uzun	65,9
Muzrabot	58,6
Termiz	52,4
Angor	47,1
Oltinsoy	46,0
Qiziriq	39,8
Boysun	38,4
Bandixon	25,4

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024-yil yanvar-avgust)

Yordamchi moliyaviy faoliyat




Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-avgustida 94,7** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **45,6** foizni yoki **1 113,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **86,9** foiz.

Termiz shahrida transport xizmatlari hajmi **298,8** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **104,0** foizni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾



Hududlar kesimida transport xizmatlari


(2024-yil yanvar-avgust)

Termiz sh	298,8	+4,0 %
Denov	186,8	+7,3 %
Jarqo'rg'on	136,8	+18,2 %
Termiz	132,7	+6,6 %
Sho'rchi	111,4	+22,2 %
Sariosiyo	100,5	+9,8 %
Qumqo'rg'on	98,0	+9,2 %
Sherobod	97,2	+10,4 %
Muzrabot	89,5	+17,3 %
Angor	82,9	+14,8 %
Uzun	76,8	+9,8 %
Qiziriq	75,4	+10,8 %
Oltinsoy	72,7	+11,5 %
Boysun	67,1	+12,3 %
Bandixon	49,7	+10,1 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-avgust)

¹⁾ 2024-yilning yanvar-avgust oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 457,0** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **12,7 %** ni tashkil etdi.



Termiz sh	269,4	+11,1 %
Denov	173,9	+13,8 %
Sariosiyo	95,5	+8,3 %
Sherobod	94,6	+11,7 %
Jarqo'rg'on	93,6	+11,1 %
Qumqo'rg'on	92,2	+9,2 %
Sho'rchi	84,6	+10,5 %
Angor	80,1	+15,3 %
Uzun	74,7	+10,7 %
Qiziriq	74,2	+11,4 %
Termiz	72,6	+12,7 %
Muzrabot	71,6	+14,9 %
Oltinsoy	66,1	+5,3 %
Boysun	65,5	+13,4 %
Bandixon	48,4	+10,7 %

Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024-yil yanvar-avgust)



2024-yil yanvar-avgust oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **87,0** foizga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to'g'ri keladi – **68,0 %**.


■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-avgust)

2024-yil yanvar-avgust oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining **83,3** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024-yil yanvar-avgust)



Termiz sh	790,9	+22,5 %
Denov	553,6	+13,4 %
Muzrabot	263,1	+9,7 %
Sherobod	258,3	+12,7 %
Sariosiyo	248,3	+9,4 %
Jarqo'rg'on	247,0	+12,4 %
Sho'rchi	243,4	+13,8 %
Qumqo'rg'on	230,2	+7,1 %
Angor	212,7	+13,1 %
Oltinsoy	207,5	+11,7 %
Qiziriq	199,3	+11,0 %
Termiz	197,6	+13,9 %
Uzun	194,0	+11,3 %
Boysun	144,5	+13,3 %
Bandixon	121,2	+13,5 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi %da


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-avgust)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. 2024-yilning yanvar-avgust oylaridagi ulushi **91,8** % ni tashkil etdi. **Termiz sh**



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar-avgust)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi %da




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2024-yil yanvar-avgust)

Muqobil to'plam ko'rsatkichlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % <i>da</i>
Jami	614,1	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	584,8	95,2
shu jumladan:		
Telekommunikatsiya xizmatlari	533,3	91,2
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	51,5	8,8
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	29,3	4,8
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	9,1	31,0
Kino-videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	1,3	4,4
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	0,0	0,0
Boshqa axborot xizmatlari	18,9	64,6

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-avgust)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024-yil yanvar-avgust** oylaridagi ulushi **62,9** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar


(2024-yil yanvar-avgust, mlrd. so'mda)

Termiz sh	231,5
Denov	98,4
Termiz	34,2
Sherobod	23,7
Sho'rchi	23,1
Jarqo'rg'on	14,3
Sariosiyo	11,8
Qumqo'rg'on	10,4
Uzun	9,8
Qiziriq	8,5
Angor	8,4
Oltinsoy	7,7
Boysun	6,5
Muzrabot	5,7
Bandixon	1,4

Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Termiz shahriga to'g'ri keladi. **2020-yilning yanvar-avgust** oylariga nisbatan mazkur hududda ushbu xizmat turi hajmi **103,4** mlrd. so'mga oshdi va ko'rib chiqilayotgan davrda **231,5** mlrd. so'mga yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **46,7** foiziga yetdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissa salmoqli bo'lib, **2024-yil yanvar-avgust** oylaridagi ulushi **47,8 %** ni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **37,5 %** ni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **14,7 %** ni tashkil etdi. **Termiz sh**

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-avgust)




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-avgust)

Termiz sh	97,9	+8,7 %
Denov	15,5	+11,8 %
Boysun	11,2	+7,6 %
Sherobod	10,6	+10,0 %
Termiz	8,1	+11,0 %
Jarqo'rg'on	7,2	+8,6 %
Qumqo'rg'on	5,7	+10,2 %
Sho'rchi	5,4	+11,2 %
Sariosiyo	3,2	+11,4 %
Uzun	3,0	+11,2 %
Angor	2,8	+11,2 %
Qiziriq	2,4	+10,2 %
Oltinsoy	2,3	+11,9 %
Muzrabot	1,9	+11,3 %
Bandixon	1,0	+13,3 %

Hajmi, mlrd. so'mda O'sishi


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-avgust)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **95,9** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024-yil yanvar-avgust)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi

2024-yil avgust yanvar-oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **3,5 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **89,6** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-avgust)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024-yil yanvar-avgust)


Termiz sh	126,3	+11,7 %
Termiz	39,2	+16,5 %
Denov	39,1	+11,6 %
Sherobod	24,4	+12,6 %
Sho'rchi	23,4	+12,2 %
Jarqo'rg'on	20,9	+13,1 %
Sariosiyo	19,7	+6,4 %
Angor	19,3	+9,4 %
Oltinsoy	15,9	+13,1 %
Qumqo'rg'on	15,4	+6,5 %
Uzun	13,4	+11,3 %
Boysun	11,9	+6,7 %
Qiziriq	11,3	+6,6 %
Muzrabot	10,4	+9,3 %
Bandixon	5,7	+7,2 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-avgust)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024-yil yanvar-avgust)




¹⁾hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda + O'sishi

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-avgust)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 34,2 foizini tashkil etadi.


Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar-avgust)

Termiz sh	47,0	+1,2 %
Denov	31,5	+9,5 %
Qumqo'rg'on	19,1	+11,1 %
Sariosiyo	19,0	+9,6 %
Jarqo'rg'on	18,6	+11,8 %
Sho'rchi	17,9	+11,2 %
Sherobod	17,9	+10,0 %
Angor	16,6	+11,3 %
Uzun	15,8	+10,2 %
Oltinsoy	15,6	+11,0 %
Muzrabot	14,5	+10,5 %
Qiziriq	13,7	+11,8 %
Termiz	12,6	+12,7 %
Boysun	12,4	+12,0 %
Bandixon	10,6	+12,6 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda O'sishi

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-avgust)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-avgust, mlrd. so'mda)



2020-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **95,8** mlrd. so'mga oshib, **154,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **42,4** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 76-225-65-91